

## INVESTITSIYA FONDLARI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

**Xolmatov Baxtiyor Abdumutalovich**

*Iqtisod fanlari nomzodi, dotsent*

**Hasanov Sherzodbek Azizjon o'g'li**

*Farg'ona Davlat Universiteti*

*Iqtisodiyot va servis kafedrası 2-kurs magistranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlanishining hozirgi holati tahlil qilingan. Investitsiya fondarini rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar tayyorlangan.*

**Kalit so'zlar:** *Investitsiya, fond, aksiyadorlik jamiyati, sof aktiv, investor, aksiya.*

Ma'lumki, amaliyotda investitsiya fondlari foyda olish, jismoniy va yuridik shaxslarning qimmatli qog'ozlarga qo'yilgan mablag'larini himoya qilish, ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash hamda aksiyadorlarning qimmatli qog'ozlar bozorida tavakkalchiligini kamaytirish maqsadida tuziladi.

Investitsiya fondi yuridik shaxs sifatida faoliyat yuritib, u fond nomidan investorlar va ularning pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar, bank hisobvarag'i va omoatlarga o'tkazib safarbar qilishdan, shuningdek qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarni amalga oshirish maqsadida aksiyalar sotib olish va chiqarish bilan shug'ullanadi. Ushbu sanab o'tilgan operatsiyalar investitsiya fondi faoliyatining o'ziga xos muhim turlaridir.

2019 yilda Mamlakatimiz ilk bor xalqaro kredit reytingini oldi va jahon moliya bozorida 1 milliard dollarlik obligatsiyalarini muvaffaqiyatli joylashtirdi. Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti tomonidan O'zbekistonning kreditga doir tavakkalchilik reytingi oxirgi 10 yilda birinchi marta yaxshilandi. Bu esa, o'z navbatida, mamlakatimizda investitsiya fondlarini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish va qo'llab-quvvatlash zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Ma'lumki, investitsiya fondlari investorlarning pul mablag'larini jalb qilish hamda ularni qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog'ozlarga, boshqa investitsiya aktivlariga, shuningdek, bank hisobvaraqlariga va omonatlarga joylashtirish maqsadida tashkil etiladi.

Jahon tajribasiga ko'ra, qulay investitsiya muhitini yaratish investitsiya fondlarini shiddatli rivojlantirishga ko'maklashadi, ular vaqti kelib jahon iqtisodiy hamjamiyatiga qo'shilishga ko'maklashuvchi xalqaro investitsiya fondlari paydo bo'lishiga sharoitlar yaratadi. Rivojlangan mamlakatlarda investitsiya fondlari va xalqaro investitsiya fondlari mamlakat va mintaqa iqtisodiyoti o'sishiga ijobiy ta'sir eta oladi.

Investitsiya fondi o'z faoliyatini qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan beriladigan litsenziya asosida amalga oshiradi. Investitsiya fondi amaldagi qonunchilik asosida o'z nizom faoliyatini normal amalga oshirish uchun, rivojlanish istiqbollaridagi vazifalarini hal qilish uchun tegishli mablag'larga ega bo'lishlari, mablag'lardan samarali foydalanishlari va uni ko'paytirish yo'llarini qidirib topishlari talab etiladi. SHu boisdan investitsiya fondlari moliyasini, uning daromadlari, xarajatlari va sof foydasi dinamikasining tahlili orqali o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda investitsiya fondlarini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

Birinchidan, qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya fondlari sonining kamligi. Hozirgi kunda O'zbekistonda 9 ta investitsiya fondi mavjud bo'lib, ularning barchasi ham moliya bozorida faoliyat yuritayotgani yo'q. Vaholanki, birgina AQSHning o'zida 16818 ta investitsiyafondi faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, ulardan 9356 tasi ochiq turdagi 530 tasi esa yopiq turdagi investitsiya fondlaridir [2, 52 b.]. SHuningdek, Rossiyada 1374 ta yoki Qozog'istonda 78 ta pay investitsiya fondlari 27 ta [4]. Aksiyador investitsiya fondlari moliya bozorida ishtirok etishmoqda.

Ikkinchidan, investitsiya fondlari faoliyatini tartibga solish bo'yicha me'yoriy-huquqiy asoslarni takomillashmaganligi. O'zbekiston Respublikasining 2015 yil 29 iyundagi "Investitsiya va pay fondlari to'g'risida" qonuni mavjud bo'lishiga qaramasdan mamlakatimizda hozirgi kunga qadar investitsiya fondi hisoblangan pay fondlari faoliyati yo'lga qo'yilmagan.

CHunki, pay fondlari faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi Nizom va reestrini yuritish bo'yicha Tartib hanuzgacha ishlab chiqilmagan.

Uchinchidan, mamlakatimizda qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan olib borilgan investitsiya fondlarining moliyaviy tahlili natijasida ularning kuzatuv kengashlari va investitsiya aktivlarini ishonchli boshqaruvchilariga nisbatan talablarini qiyinlashtirilishi natijasida mamlakatimizdagi ko'plab investitsiya fondlari faoliyatini yuritishga to'siq bo'lmoqda. Natijada aksiyadorlik jamiyatlariga aylangan investitsiya fondlari tomonidan bir qator qonunni buzish holatlari ham qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan aniqlangan.

To'rtinchidan, mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan aksiyadorlik jamiyatlariga ustav fondiga qo'yilgan talablarni yuqoriligi investitsiya fondini faoliyat yuritishiga to'siq bo'lmoqda. Natijada bir qator yirik xususiylashtirish investitsiya fondlari kuzatuv kengashi tashabbusi bilan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi qarori orqali tugatildi. Oqibatda qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozorida muomalada bo'luvchi resurslar hajmi ham kamayishiga olib keldi.

Beshinchidan, mamlakatimizda investitsiya fondlarining aksiyalar soni va sof aktivlari miqdori juda kam.

So'nggi yillarda tez sur'atlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya fondlarini rivojlanishi dunyodagi yirik investorlar rivojlangan mamlakatlarga nisbatan tez sur'atlarda rivojlangan mamlakatlarga investitsiyalar amalga oshirmoqda. Mazkur tendensiyaning davom etishi rivojlanayotgan mamlakatlarning moliya bozorlari kapital uchun raqobatning kuchayishiga olib kelmoqda.

Oltinchidan, investitsiya fondlari rasmiy manbalarida investorlar uchun talab etilgan ma'lumotlarning shaffofligi to'liq aks etmasligi. Xulosa qilib aytganda, investitsiya fondlarining sof aktivlaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish strategiyasi, investitsiya fondlari faoliyati mavjud holati va alohida jihatlarini e'tiborga olgan holda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, mamlakatimizdagi investitsiya fondlarini sof aktivlarini oshirish uchun investitsiya fondlarini portfelida yuridik shaxslarni aksiyalari soni ko'paytirish maqsadga muvofiq. Yuridik shaxslar ishtirokidagi aksiyalar soni ko'payishi investitsiya fondlarini sof aktivlarini qiymatini oshishiga imkon yaratadi.

Ikkinchidan, O'zbekistonda investitsiya fondlarini rivojlantirish uchun aholi va xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni bo'sh pul mablag'larini milliy iqtisodiyotga jalb qilishni rag'batlantirish hamda jahon moliya bozoriga integratsiyalashuvni ta'minlashda investitsiya fondlari faoliyatini me'yoriy-huquqiy bazasini takomillashtirish lozim. Xususan, "O'zbekistonda pay fondlarini tashkil etish to'g'risida"gi Nizom hamda "Pay fondlarning reestrini yuritish tartibi"ni ishlab chiqish va joriy etish maqsadga muvofiq. Ushbu me'yoriy huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va joriy etish investitsiya fondlari sof aktivlarini oshirishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Fikrimizcha, pay investitsiya fondini tashkil qilishda investitsiya fondini rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanish lozim. Bunda quyidagimexanizmdan foydalanish maqsadga muvofiq:

- ishonchli boshqaruvchi pay fondini tashkil etish to'g'risida qaror qabul qilingan keyin pay egalari (investorlar) bilan ishonchli boshqaruvchilar o'rtasida shartnoma tuziladi. Shartnomada pay egalari har bir payni birlashtirish maqsadida pay fondiga ularning mablag'lari kiritiladi;

- ishonchli boshqaruvchi pay fondini faoliyatini boshlash uchun vakolatli organga hujjatlar taqdim etadi. Mazkur hujjatlar ko'rib chiqilgandan so'ng ruxsat etiladi;

- ishonchli boshqaruvchi kompaniyaga pay fondi faoliyati ruxsat etilgandan keyin, ishonchli boshqaruvchi pay fondini shakllantirish uchun depo tranzit (depo) hisob raqam ochadi. Ushbu hisob raqam pay fondi nomidan ishonchli boshqaruvchi kompaniyasi fond bozorida qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun arizalarni qabul qilish boshlanganligi to'g'risidagi xabarni taqdim etish boshlanishidan oldin va ishonchli boshqaruvchi kompaniyaning qoidalari ro'yxatdan o'tgandan keyin ochiladi. Bundan tashqari, ishonchli boshqaruvchi pay fondini shakllantirish uchun bankda maxsus hisobraqam ochadi. Mazkur hisobraqam pay fondi nomidan ishonchli boshqaruvchi kompaniyasi fond bozorida qimmatli qog'ozlarni sotib olish boshlaganida ochiladi;

- ishonchli boshqaruvchi kompaniyasi pay fondining investitsiya paylarini Markaziy depozitariydan depo hisob raqami ochadi. Unga asosan, pay fondidagi investitsiya paylarining huquqlari hisobini yuritadi va ularni saqlaydi. Bundan tashqari, Markaziy depozitariyda investitsiya paylarini reesti yuritiladi. Unga asosan, investitsiya paylar reestrini qimmatli qog'ozlar bozorini muvofiqlashtirish va rivojlantirish markazi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Uchinchidan, investitsiya fondlari rasmiy manbalarida investorlar uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar, ya'ni aksiyalarning daromadliligi, har bir aksiyadan olinadigan dividend miqdori va boshqa ma'lumotlarning to'liqligini ta'minlash lozim. Bu investitsiya fondi haqida investorlarga o'z mablag'larini jalb etishni ko'payishiga va bu orqali investitsiya fondlarining sof aktivlar qiymatini oshishiga olib keladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi // Xalq so'zi, <http://xs.uz>, 2020 yil, 25 yanvar.4-bet.

2.2018 Investment Company Fact Book ([www.icifactbook.org](http://www.icifactbook.org)). -p.52.

3.<http://www.nlu.ru>.

4.<http://www.nationalbank.kz>.